

O‘RTA OSIYODA KITOBAT SAN’ATI SHAKLLANISHI

Zokirova Mubinabonu Shavkat qizi

O‘zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

zokirovamubinabonu004@gmail.com, telefon +998908405252

Ilmiy rahbar: Hojiakbar Nuriddinov

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O‘rta Osiyoda kitobat san’atining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritiladi. Kitobat san’atining tarixiy ildizlari, uning tarkibiy qismlari - xattotlik, miniatyura va bezak san’atining o‘zaro bog‘liqligi tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur san’at turining rivojiga ta’sir ko‘rsatgan ijtimoiy, siyosiy va madaniy omillar ko‘rib chiqiladi. Maqolada qo‘lyozma kitoblarning ilmiy va estetik ahamiyati hamda ularning O‘rta Osiyo madaniy merosidagi o‘rni ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Kitobat san’ati, xattotlik, qo‘lyozma, miniatyura, muqovasozlik, O‘rta Osiyo, madaniy meros, Temuriylar davri, xattotlar, bezak san’ati, ilmiy markazlar, saroy kutubxonalari.*

Kirish

O‘rta Osiyo qadimdan ilm-fan, madaniyat va san’at markazlaridan biri sifatida tanilgan. Ushbu hududda kitobat san’ati, ya’ni qo‘lyozma kitoblarni yaratish, bezash va ko‘chirish an’analari asrlar davomida shakllanib, yuksak darajaga ko‘tarilgan. Ayniqsa, Temuriylar davrida kitobat san’ati o‘zining eng gullagan bosqichiga yetgan bo‘lib, bu davrda xattotlik, miniatyura va muqovasozlik san’atlari bir-biri bilan uyg‘un holda rivojlangan.

Kitobat san’ati nafaqat yozuvni ko‘chirish jarayoni, balki estetik, ma’naviy va ilmiy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan murakkab ijodiy jarayon hisoblanadi. Bu san’atning rivojlanishida Mir Ali Tabrizi, Sulton Ali Mashhadi kabi mashhur xattotlar, shuningdek, saroy kutubxonalari va ilmiy markazlar muhim rol o‘ynagan. Mazkur maqolada O‘rta Osiyoda kitobat san’atining shakllanish jarayoni, uning asosiy bosqichlari, rivojlanish omillari hamda madaniy meros sifatidagi ahamiyati ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Kitobat san’ati (arab, kataba -yozish, yozmoq so‘zidan) - qo‘lyozma kitoblarni yaratish va ziynatlash. Markaziy Osiyoda (jumladan, O‘rta Osiyoda) qo‘lyozma kitoblarni bezash juda qadimdan mahalliy madaniyat taraqqiyot bosqichlari bilan bog‘liq holda shakllangan. Eng qadimgi kitoblardan “Avesto” qo‘lyozmalari; sug‘d tilida yaratilgan “Vessantaraka jataka” asari (uning varaqlari turli mamlakatlar - Rossiya, Fransiya, Angliyada saqlanadi); sopol yuzasidagi bitiklar, charm o‘ramlari, metall buyumlardagi yozuvlar, qog‘oz varaq taxlamalari (taxtachalar orasiga olib tizimchalar bilan bog‘langan turi) va boshqa O‘rta asrlarda umummusulmon yoki arab tilidagi qo‘lyozma an’analariga asoslangan Kitobat san’ati to‘liq shakllandi va yuksak taraqqiyot darajasiga erishdi. Kitobat san’ati hunarmandlar - qog‘ozrez, xattot, lavvoh, mo‘zahhib, musavvir, sahhof (muqovasoz) va boshqalardan iborat GURUH

(jamo'a) tomonidan bajariladigan jarayon bo'lib, O'rta va Yaqin Sharq islom tasarrufidagi davlatlarda bir xil usulda amalga oshirilgan. Qo'lyozma kitob uchun yaxshi, sifatli qog'oz tanlangan, xattot matnni qog'ozga yozishda maxsus qog'ozkarton (mistar) ustiga ip tortib uning izini matn yoziladigan qog'ozga tushirib olgandan so'ng xat yozilgan. Matnni joylashtirilishi xattotning mahoratiga bog'liq bo'lgan. Bitilgan matnni lavvoh hoshiya qog'ozga yelimlagan. Ustidan jadvalkash ayni yopishtirilgan joydan turli ranglarda chiziqlar tortib, matnni jadvalga olgan. So'ngra mo'zahhib suyultirilgan oltin va boshqa turli ranglar yordamida qo'lyozmani ziynatlagan va “shams”, “lavha”, “sarlavha”, “zarvaraq” “xotima” naqshlar bilan bezagan. Bo'sh qoldirilgan joylarga musavvir rasm (miniatyura) ishlagan. Musavvir, naqqosh nafis qamish qalam bilan rasmning asosiy tarhini, shakllar chizig'ini, zaminni, detallarni chizib, so'ng turli rangda (oltin, kumush ishlatgan holda) bo'yagan. Muqovachi qo'lyozmani karton yoki charmdan ishlangan (naqsh zarb qilingan, bo'yoqlar, oltin bilan bo'yalgan) muqovaga birlashtirgan, muqova qopqog'i yog'ochdan ba'zan kumushdan quyib tayyorlangan hamda bosma, o'yma va qadama naqshlar, yorqin rasmlar bilan bezatilgan. O'rta asrlar (VII-XII-asrlar)da mutafakkirlar, olimlar asarlari, asosan, arab tilida (Xorazmiyning “Kitobi surat al-arz” – “Yer tasviri kitobi”, Beruniyning “Osor ulboqiya” – “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, XIV-asr va boshqalar), keyinchalik (X-XIX-asrlar) fors tilida bitilgan va rasmlar bilan bezatilgan. Temuriylar davri (1370 - 1506)dan boshlab turkiy - o'zbek tilida kitoblar yaratilishiga alohida e'tibor berilgan. Saroy kutubxonalar va nufuzli shaxslar uchun tayyorlangan qo'lyozmalar Kitobat san'atining yuksak namunasi darajasida yaratilgan. Mumtoz Sharq adabiyoti namoyandalari (Firdavsiy, Nizomiy, Dehlaviy, Bedil, Alisher Navoiy va boshqalar) asarlari, buyuk allomalar (Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqalar)ning ilmiy asarlari qo'lyozmalari shu usulda tayyorlangan Kitobat san'atining nodir durdonalaridir. Ularning aksariyati O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. Jumladan, shoira Nodira buyurtmasiga binoan xattot Muhammad Yusuf Dabir tomonidan XIX-asrda Qo'qonda ko'chirilgan Alisher Navoiyning she'rlar to'plami - “Devoni Alisher Navoiy” qo'lyozma kitobi ishlangan bezaklariga ko'ra, dunyoda Kitobat san'atida yagona nusxadir. Unda musavvir va xattot Navoiy asarlari insoniyatga Quyoshdek nur sohib turishini ramziy tasvirlagan naqshlar mavjud. Kitobat san'ati XX-asrgacha davom etgan. XX-asr 70-80-yillarida bir guruh olimlar (jumladan, A. Madraimov, Sh. Salimov, Muhammadjonov va boshqalar) sa'y-harakatlari, ijodiy izlanishlari natijasida an'anaviy qo'lyozma kitob yaratish san'ati - Kitobat san'ati qayta tiklandi. Sh. Muhammadjonov Kitobat san'atida samarali ijod qilmoqda: “Navoiy lirikasi”, “Kalila va Dimna”, “Devonu lug'otit turk”, “Ipak yo'li hikoyalari” va boshqa kitoblarni Kitobat san'ati usulida nafis bezaklar, tasvirlar bilan bezatib tayyorladi. Elmira Ismoilova, Abdumajid Madraimov.

XV asr o'rtalaridan to XVII asr o'rtalarigacha bo'lgan davrda Movarounnahr xududida yaratilgan to'kkizta badiiy bezakli kitob ko'lyozmasi kiritilgan. Ulardan eng qadimgisi arab tilida, ikkinchisi eski o'zbek tilida yozilgan, qolganlari esa forsiy tiliga oid adabiyotlar bo'lib,

ular Buxoroda yoki buxorolik xatotlar tomonidan bitilgan. Arab tilidan boshqa barcha qo‘lyozmalar illustrasiyalar (rasmlar) bilan bezatilgan.

Taqdim etilgan materiallarning kamsonliligi va bir maromda emasligi Movarounnahr madaniyat markazlarida kitobat san‘ati taraqqiyotini kuzatish imkonini bermaydi. Biroq biz quyidagi bir qancha jixatlarga oydinlik kiritishimiz mumkin: Xuroson madaniyati bilan genetik bog‘liqdir, Xindiston Boburiylari bilan ijodiy aloqalar va XVI asr ikkinchi yarmidagi o‘ziga xos taraqqiyot.

Temuriylar davri, Samarqand shahri XV asr o‘rtalari.

Shubxasiz, Movarounnahr xududida kitoblar qadim zamonlardan tayyorlangan, ammo “kitobat san‘ati” tugunchasi to‘la ishonch bilan aytish mumkinki, XV asr birinchi yarmida, ya‘ni Amir Temurning nabirasi Ulug‘bek tomonidan Xuroson (Hirot)dan Samarqandga “kitob ustalari” ning keltirilishi bilan paydo bo‘lgan. Extimol, ularning orasida xattot Abdullox al-Xiraviy (“Hirotlik”) ham bo‘lib, uning bu shaxarda yaratgan kuplab kit‘a xat namunalarini Ulugbek o‘limidan keyin saqlanayotgan eng qadimiy qulyozmalardan biri xisoblangan va 854 / 1449-1450 yillar deb davrlashtirilgan. Abdullox al-Xiraviy shuningdek “Tabbox” (arabcha: oshpaz) taxallusi bilan ham mashxur. Uni Ja‘far Tabriziyning shogirdi hamda mashxur xattot va davlat arbobi Abdullox Marvarid Bayoniyning (1461 -1526) ustozi deb atashadi .

Abu Sa‘id xukmronligi davrida (862 yil safaroSh / 1457 yil dekabr -1458 yil yanvar) Abdullox al-Xiraviy Xalifa Ali tomonidan yozilgan arab tilidagi “Nasr al-la‘aliy min kalam amir al-mu‘minin Ali” (“E‘tikodli hukmdor Ali suzlagan marvaridlar sochmasi”) xikmatlar to‘plamini ko‘chirishni tugatdi. U Rossiya Milliy kutubxonasida saqlanayotgan eng qadimiy Urta Osiyo kitobat san‘ati yodgorligidir (1-katalog). Shuningdek, hoshiya chizuvchi va bezovchi usta (muxarrir) Abdul Vosi nomi ham kursatilgan bo‘lib, u xattot bilan birga faoliyat olib borgan.

13 saxifada nozik did bilan ishlangan 30 x 21 sm o‘lchamli kitob “mamlukcha usul”ning sezilarli ta’siri ostida ishlangan. XIV-XV asrlarda Misr va Suriyada mamluk sultonlari, ularning qarindoshlari, yaqinlari, yuqori martabali a‘yonlarga atalgan kitoblar ushbu usulda bezatilgan. Bunday kitoblarning bezagi qat’iy geometrik shayuti, zarxal va havo rang bo‘yoqlarining ko‘pligi, bejirim yirik yozuvi (muxakkak) bilan ajralib turgan, qog‘ozning tashki ko‘rinishiga va naqshli charm muqovaga alohida ahamiyat berilgan.

Bizning qo‘lyozmamiz mustaxkam sariq rangli yaltiroq qog‘ozi, tillarang va ko‘k bo‘yoqi hoshiyasi, ichidan uzunasiga chizilgan to‘rtta tillarang chiziqlar bilan beshta to‘g‘ri turtburchak qismlarga bo‘lingani orqali ajralib turadi. Yuqori, o‘rta va pastki qismlardagi matnlar tillarangda bir qator yirik sulslar bilan bitilgan va ingichka qora chiziq bilan birlashtirilgan. Uch qatordan iborat bo‘lgan tavke yozuvli ikkinchi va to‘rtinchi to‘g‘ri turtburchaklardagi birinchi va uchinchi qatorlar ko‘k, o‘rtadagisi esa tillarang siyox bilan yozilgan. Matnning o‘ziga xos grafik tuzilishi mamluk uslubiga xos. Masalan, al-Busiriyning Muhammad (s.a. v.) haqidagi “Kasidat al-burda” arab dostonlari o‘rin olgan taxmis saxifalari

deyarli shunday bo‘linishda bezatilgan. Eron va usmoniylar saltanatida ham ba’zan Qur’on shu tarzda bezatilgan. O’sha vaqtlarda matnni yozish uchun faqatgina ko‘k siyox bilan aralashtirilgan tilladan foydalanish noodatiy hodisalardan biri xisoblangan. Bundan tashqari, ba’zi saxifalarni bezashda Eron an’analari ham foydalanilgan. Shuningdek, 8-saxifada qizil “tur” va kichik medalonlarni ko‘rish mumkin, 1-2 va 5-6-saxifalar XV asr emas, balki XVI asrning ikkinchi yarmiga tegishli bo‘lgan tillarang gulli naqshlar bilan bezatilgan.

Shayboniylar davrid Shohruhiya shahri 1520-yillar miniatyuralari.

XVI asr boshlarida Movarounnahrda hokimiyat tepasiga shayboniylar, Eronda esa safaviylar keldilar. Ikki tomon ham markazi Hirot bo‘lgan Xurosonni boy mamlakat deb xisoblab, qonuniy mulklari sifatida galma-galdan xukmronlik qilishgan. Hirotidan qimmatbaxo buyumlar va kitoblar, shuningdek, kitob yasovchi ustalar va xunarmandlar ham olib ketilgan. Oxir-oqibat Xuroson Safaviylar qo‘l ostiga o‘tdi va faqatgina XVI asr oxiridagi o‘n yillikda shayboniylarga o‘tgan.

Hirotidan olib ketilgan kitoblar ko‘pincha to‘lik bezatilmagan, Movarounnahr madaniy markazlarida esa ularga miniatyuralar ishlangan. Bu ish bilan Hirotidan kelgan musavvirilar bilan birgalikda ularning qo‘l ostidagi shogirdlari ham shug‘ullanishgan. Ularning hamkorligi natijasi o‘larok, XV asr oxiri va XVI asr boshida yozilgan Navoiy “Kulliyot”ini bezab turuvchi 25 ta miniatyura vujudga kelgan.

Taqdim etilgan albomda “Kulliyot”dan olingan atigi bir nechta miniatyuralar aks ettirilgan bo‘lib, bu ko‘lyozma haqida bizning – “Alisher Navoiy asarlari XV-XVI asrlar kitobat san’ati durdonalarida (Rossiya Milliy kutubxonasi to‘plamidan)” nomli oldingi albomimizda batafsil bayon etilgan. Unda qator ilustrasiyalar, shu jumladan, “Shox G‘oziy va kampir shariat qozisi oldida” miniatyurasi chop etilgan bo‘lib, tepa burchagiga 928 / 1521-1522 yillar sanasi va buyurtmachi nomi Abdul Muzaffar Sulton-Muhammad tarzida yozilgan . O.I.Galerkina Muzaffariddin Muhammad (Keldimuhammad, 1480-1532), shubxasiz, Mirzo Ulugbek qizining nabirasi va Shayboniixonning amakivachchasi shayboniy Abulxayrxonning nabirasi, Toshkent xoni Suyunchxujaxonning o‘g‘li va vorisi bo‘lganligini ta’kidlaydi.

1517-yildan 1525-yilgacha Shoxruxiyada yashagan, keyinchalik Toshkentda hokimlik qilgan Keldimuhammad bu miniatyurada qozi gilami ustida o‘tirgan holatda tasvirlangan. Bu ilustrasiya tasviridan kamida ikkita tarixiy portret aks etgan, degan xulosaga kelish mumkin. Qozi ikonografik belgilarga ko‘ra ifodalangan, shox G‘oziy timsolida temuriylar sulolasining sunggi namoyandalari biri bo‘lmish sulton Husayn Boyqaro aks ettirilgan, qozining orqasida tik turgan xolda esa davlat arbobi va buyuk shoir Alisher Navoiy tasvirlangan. Ularning ikonografiyasi Hirotlik mashxur musavvir Kamolidin Bexzod ishlari orqali olamga mashxur bo‘lgan. XV asr Hirot ishlaridagi aloxida qaxramonlarni kompozitsiyalarga kiritish usuli, “Kulliyot”ga kiritilgan, maxorat darajasi turlicha bo‘lgan musavvirilar tomonidan chizilgan boshqa miniatyuralarga ham xosdir . Biroq Keldimuhammad aks etgan, Hirotga xos badiiy did kadriyatlari va nufuzi shayboniylar sulolasidan bo‘lgan o‘lka hokimining madaniy

muxitiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri meros bo‘lib kuchganining ramzi bo‘lgan miniatyura Hirot namunalarini benazir bilgan va portretli miniatyura usullarini bekami ko‘st egallagan usta musavvir tomonidan yaratilgan .

Xulosa

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘rta Osiyoda kitobat san‘ati uzoq tarixiy jarayon davomida shakllanib, murakkab va ko‘p qirrali madaniy hodisa sifatida taraqqiy etgan. Uning ildizlari qadimgi yozma yodgorliklar, jumladan “Avesto” va ilk qo‘lyozma namunalariga borib taqalsa, o‘rta asrlarga kelib bu san‘at mukammal tizimga ega bo‘lgan ijodiy va hunarmandchilik faoliyatiga aylangan. Ayniqsa, Temuriylar davrida kitobat san‘ati o‘zining eng yuksak bosqichiga ko‘tarilib, xattotlik, miniatyura, muqovasozlik va naqqoshlik kabi yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligi ta‘minlangan.

Tadqiqot natijalari kitobat san‘ati yakka ijod mahsuli emas, balki bir necha mutaxassislar - xattot, musavvir, mo‘zahhib, lavvoh va sahhoflardan iborat ijodiy jamoa mehnati mahsuli ekanini tasdiqlaydi. Bu esa uning nafaqat san‘at, balki ijtimoiy-mehnat jarayoni sifatida ham ahamiyatini oshiradi. Shuningdek, Movarounnahr hududida kitobat san‘atining rivojlanishi Hirot, Samarqand va Buxoro kabi yirik madaniy markazlar bilan uzviy bog‘liq holda kechgani, ularning o‘zaro madaniy aloqalari va ijodiy ta‘siri muhim omil bo‘lganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, Shayboniylar va keyingi davrlarda ham kitobat san‘ati an‘analari davom ettirilib, yangi uslubiy xususiyatlar bilan boyitilgan. Xuroson, Eron hamda Boburiylar davlati bilan bo‘lgan madaniy aloqalar bu san‘at turining yanada takomillashuviga xizmat qilgan. Ayniqsa, qo‘lyozma kitoblarda aks etgan miniatyuralar orqali tarixiy shaxslar, siyosiy jarayonlar va estetik qarashlar o‘z ifodasini topgan.

Umuman olganda, kitobat san‘ati O‘rta Osiyo xalqlarining boy ilmiy-ma‘naviy merosini saqlash, avlodlarga yetkazish va estetik didini shakllantirishda muhim vosita bo‘lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ushbu noyob san‘at an‘analarini o‘rganish, asrab-avaylash va zamonaviy shakllarda rivojlantirish dolzarb ilmiy va madaniy vazifalardan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sindarov Komil Temuriylar kutubxonasining siri: qissa / Komil Sindarov. - Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.- 320 b.
2. Ibrohim Yo‘ldoshev O‘zbek kitobchilik terminologiyasining shakllanishi. – Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU Rizografi nashri, 2004.-138 6.
3. H.K.Ahrorov Xattotlik san‘ati va arabcha yozuv turlari. O‘quv uslubiy qo‘llanma. – Samarqand:, 2014. – 96 6.
4. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Kitobat_san%CA%BCati